

yo'naltirishga doir investitsion qaror qabul qilishda albatta ushbu mamlakatning investitsiya muhiti va uning jozibadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. U bevosita o'sha mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy erkin jamiyatda esa odamlar o'zlari xohlagan tarzda ishlash, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va sarmoya kiritish huquqiga egadir.

## **MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PUL BOZORI INSTRUMENTLARINING ROLI VA AHAMIYATI**

***Omandavlatov Jasur Alisher o'g'li***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

Zamonaviy iqtisodiyotda pul bozorining barqaror faoliyat ko'rsatishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va tadbirkorlik kapitalini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Arzon va moslashuvchan moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish korxonalariga va moliya institutlariga yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, to'lov qobiliyatini saqlash orqali global bozorlarda o'z raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Xususan mamlakatimizda "barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mamlakatning strategik maqsadlariga erishishda ishonchli vosita sifatida davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish talab etilmoqda"<sup>111</sup>. Vaholanki moliya bozori tarkibiga kiruvchi pul bozori mamlakat iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababdan qisqa muddatli moliyaviy vositalarning likvidlik va naqd pulni diversifikatsiya qilish kabi o'ziga xos xususiyatlaridan samarali foydalanish moliya tizimini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlarga erishishni samarali tashkil etishda pul bozori instrumentlarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va ahamiyatini o'rganish dolzarb hisoblanadi.


Zamonaviy pul bozori turli xil moliyaviy vositalar orqali faoliyat yuritadi. Shu sababli, zamonaviy moliya tizimining "yuragi" hisoblangan va pul-kredit siyosati samaradorligini belgilab beruvchi quyidagi beshta asosiy moliyaviy instrumentga batafsil to'xtalib o'tish joiz (1-rasm).

Quyidagi instrumentlar moliya tizimini rivojlantirishda va investitsion muhitni shakllantirishda pul bozorining beshta asosiy vositasi hisoblanadi. Shulardan, bank tizimining barqaror rivojlanishi va to'lov uzliksizligini saqlashda ishlatiladigan banklararo kreditlar (overnight) va qayta sotib olish sharti bilan tuzilgan bitimlar evaziga qisqa muddatli pul mablag'larini jalb qilish vositasi bo'lgan repo bitimlari moliya tizimida likvidlikni tezkor boshqarish uchun xizmat

---

<sup>111</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" VM-210-son Qarori, 08.04.2025. <https://lex.uz/docs/-7469803>

qiladi. Shuningdek budget taqchilligini vaqtinchalik yopish va pul muomalasini tartibga solishda qo'llaniladigan g'aznachilik majburiyatlari investorlar tomonidan eng xavfsiz dep hisoblanadi. Kredit reytingi yuqori korxonalar uchun bank kreditiga muqobil bo'lgan, qisqa muddatli majburiyatlarni tezkor moliyalashtirish imkonini beruvchi tijorat veksellari hamda investorlarga daromad olish manbai bo'lish bilan birga, istalgan vaqtda aktivni ikkilamchi bozorda sotish imkonini yaratuvchi depozit sertifikatlari pul bozorining yuqori likvidli aktivlari sifatida, iqtisodiyotda bo'sh turgan mablag'larni real sektorga jalb qilishda muhim vositalardir.




**1-rasm. Pul bozorida faol qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlar**<sup>112</sup>

“Institutsional investorlarning asosiy maqsadi kapitalni ko'paytirish hamda uning likvidli shaklda saqlanishini ta'minlash”<sup>113</sup> ekanligini inobatga olsak, g'aznachilik veksellari, tijorat veksellari va depozit sertifikatlari ushbu ehtiyojlarni qondiruvchi eng maqbul pul bozori instrumentlari hisoblanadi. Ular investorga ham barqaror daromad keltiruvchi, ham zaruriyat tug'ilganda tezda naqd pulga aylanuvchi aktiv vazifasini o'taydi.

Pul bozori instrumnetlarining asosiy afzalliklari nafaqat qisqa muddatli likvidlikni taminlash uchun xizmat qiladi balki investorlar uchun yuqori foizlarda bo'lmasada xavfsiz va barqaror daromad olish imkonini beradi. Shularni inobatga olgan holda moliya tizmini takomillashtirish va investitsion muhitni shakllantirishda pul bozori instrumentlarining quyidagi to'rtta asosiy afzalliklarini sanab o'tish muhim hisoblanadi (2-rasm).

<sup>112</sup> Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi

<sup>113</sup> S.O'. Omonov. Kapital bozorida institutsional investorlar faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 14 b.



**2-rasm. Pul bozori instrumentlaring asosiy afzalliklari<sup>114</sup>**

Yuqorida keltirilgan avfzalliklar evaziga pul bozori mamlakat iqtisodiyotida markaziy banklarning samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirishda, moliya tizimining barqarorligini va likvidlik oqimini ta'minlashda, mablag'larning optimal taqsimlanishi moliya tizimining ishonchliligini kafolatlashga xizmat qiladi. Natijada moliya tizimining ishonchliligi investitsion muhitni yanada yaxshilash va investorlar ishonchiga erishishda muhim rol o'ynaydi.

So'ngi yillarda O'zbekistondagi pul bozorida amalga oshirilayotgan savdolarning aksariyat qismi overnights, repo bitimlari, depozit sertifikatlari va g'aznachilik majburiyatlari kabi instrumentlar tashkil qilmoqda. Ammo O'zbekiston bozorida korxonalar kredit reytinglar tizimi rivojlanmaganligi, veksellarni sotish mumkin bo'lgan faol bozor yo'qligi, O'zbekiston kapital bozorida tijorat veksellarining o'rniga korporativ obligatsiyalar dolzarbroq ekanligi tijorat veksellarini deyarli qo'llanilmasligi omillaridir. Agar moliya bozori islohotlarini amalga oshirishda korxonalarining kredit reytinglarini baxolash mexanizmi yo'lga qo'yilsa, korxonalarining reytinglari oshib borsa va veksellarning oldi sotdi bozori platformasi yaratilsa bu instrument bank kreditiga eng yaxshi muqobil bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va moliya bozorini liberallashtirish sharoitida, ushbu pul bozori instrumentlarini milliy amaliyotga tatbiq etishni yanada takomillashtirish va rivojlantirish zarur. Xususan, institutsional investorlar faoliyatini liberallashtirish, korxonalarining kredit reytingi tizimini joriy etish hamda qimmatli qog'ozlar savdosi platformalarini yanada takomillashtirish lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025-2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" VM-210-son Qarori, 08.04.2025. <https://lex.uz/docs/-7469803>*
2. *S.O'. Omonov. Kapital bozorida institutsional investorlar faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – T.: TMI, 2022. – 14 b.*
3. *Functions of the Money Market and Its Economic Impact. // Editorial Team, December 19, 2025.*

<sup>114</sup> Functions of the Money Market and Its Economic Impact. – Editorial Team, December 19, 2025.